OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

J.X.Karshibayev – GulDPI rektori,
biologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqola ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi – ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, uning zamonaviy dastur, vosita va metodlaridan samarali foydalanish, talabalarning sifatli ta'lim olishlari va yetuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun xalqaro talablar darajasidagi shart-sharoitlarni yaratish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ta'limni raqamlashtirish, transformatsiya, sun'iy intellekt, UX - dizayn, virtual, kibermakon, Universitet 4.0, raqamli universitet, aqlli universitet.

Abstract. This article focuses on the priority of public policy in the field of education – the widespread introduction of digital technologies into the educational process, the effective use of its modern programs, tools and methods, the creation of conditions at the level of international requirements for students to receive quality education and become mature specialists.

Keywords: digital technology, education digitization, transformation, artificial intelligence, UX - design, virtual, cyberspace, University 4.0, Digital University, Smart University.

Hozirgi globallashuv kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamnafas harakatda bo'lishni taqozo etmoqda. Axborot almashinuvi va foydalanish tezligi juda jadallashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan unumli va to'g'ri foydalanish, ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga va o'quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendentsiya bo'lib, yaqinda ta'lim tizimida sodir bo'lgan eng muhim jarayonlardan birini anglatadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonlarida bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarurligi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bir qator vazifalarni bajarish belgilab berilgan. [1,2,3,4]

Ayni paytda fan, tadbirkorlik va ta'limda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish turli mamlakatlarda ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar insonlar, jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda katta rol o'ynaydi va shaxslar, jamiyatlar hamda tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xilligi va sifatining jadal o'sishiga, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga ham raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal suratda kirib kelayotgani, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tadbiq etilayotgani va o'z samarasini berayotgani namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llanilishi an'anaviy tizimda katta o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar – foydalanuvchi manfaatlari uchun axborotlarni yig'ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy texnik vositalar to'plamidan iborat.

Ta’limni raqamlashtirish – ta’lim sohasini uslubiy-amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta’minlash hamda ulardan samarali foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Bundan tashqari, raqamlashtirish masofali o‘qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo‘lib xizmat qiladi. Raqamlashtirish jarayonida ta’lim tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish amalga oshiriladi. Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin.

Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarori bilan tashkil etilgan bo‘lib, institutimizda tizimli ishlar amalga oshirila boshlandi va bir qator elektron tizimlar ishlab chiqilib, ta’lim jarayoniga tatbiq etildi. Jumladan:



1-rasm: Institutda raqamli texnologiyalarni joriy etilganligi

Boshqaruv nuqtayi nazaridan, raqamlashtirish ta’lim muassasalariga o‘z resurslari va akademik dasturlarini boshqarishni osonlashtiradi. Masalan, raqamli vositalardan talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish, professor-o‘qituvchilar va xodimlar faoliyatini kuzatish va resurslarni samarali taqsimlash uchun foydalanish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda talabalar oldingilarga qaraganda nihoyatda farq qiladi. Endilikda ularning zamonaviy talablari va ehtiyojlari mavjud bo‘lib, zamonaviy oliy ta’lim xizmatini ko‘rsatuvchilar ularga munosib bo‘lishlari lozim.

Bugungi kunga kelib, zamonning asosiy talabiga ko‘ra ta’lim tashkilotlari, ayniqsa oliy ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini rivojlantirishda moslashuvchan o‘qitish, “***Sun’iy intellekt”, “UX-dizayn”, “Virtual yoki kibermakon”*** kabi yangi texnologiyalarga tayanishi lozim. Shu o‘rinda, oliy ta’lim tashkilotlari bosiqma-bosqich “***Universitet 4.0***”, ayrim hollarda “***Raqamli universitet***” yoki “***Aqlli universitet***” deya tavsiflanuvchi kontseptsiyaga o‘tishi zarur.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni ta’limda joriy qilishni asosi raqamli inqilobning yangi bosqichi bilan yaratiladi, ya’ni bu raqamli texnologiyalar vazifalarni hal qilishning hamma uchun ochiq va ishonchli vositasiga aylantiradi.

Ta’limning raqamli transformatsiyasining mohiyati – bu raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o‘quv jarayonini mustaqil tashkil etishga qaratilgan harakatdir. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, raqamli ta’lim yangi pedagogik tizimda (o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazishning yangi modellari) amalda foydalanishga yordam beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari

Raqamli ta’lim an’anaviy ta’limning raqamli shakli, ya’ni ***multimedia, onlayn platformalar, veb-resurslar, bulutli texnologiyalar*** kabi tizimlardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, bu iqtisodiyotni raqamlashtirishning yangi sharoitlarida ta’lim tizimi imkoniyatlarini sezirarli darajada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarori.
5. G‘afforov F.H. Ta’lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy etish. International School Of Finance Technology and Science 2022. 94 b.